

# Surxondaryolik o'g'lonlar Vatan xizmatiga otlandi



Surxondaryolik o'g'lonlar Vatan xizmatiga otlandi


Dunyoda er yigit uchun Vatan xizmatiga o'tlanishdek sharaf bo'lmasa kerak. Zero bu shunchaki ish emas, balki ona-tuproq, el-ulus, ota-ona oldidagi muqaddas burchdir. Ana shunday sara o'g'lonlar bilan Qurolli Kuchlarimiz safi yil sayin to'lib borayotgani har qancha e'tirofga loyiqdir.

Bugun, 9 mart kuni Termiz temir yo'l vokzalida Surxondaryo viloyati tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan 470 nafar harbiy xizmatga chaqiriluvchilar Vatan oldidagi muqaddas burchlarini o'tash uchun muddatli harbiy xizmatga kuzatildi.

Vokzal hovlisida jam bo'lgan Janubiy operativ qo'mondonligi, Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi, Termiz harbiy prokuraturasi, ota-onalar, faxriylar, ijodkor va san'atkorlar bo'lajak yurt posbonlariga yuksak ishonch bildirib, ularning faoliyatiga ulkan zafarlar tiladi.

“Mening bobom, amakim, qolaversa, dadam harbiy sohada faoliyat olib borganlar. Men ham bugun harbiy xizmatga yo'l olib, sulolamiz davomchisi bo'layotganimdan baytivorman” type="text" data-bbox="52 238 460 255"> deydi Behur Sherdonov.

Darvoqe, mard o'g'lonlar bu yergacha qancha sinovlar qo'vchilardan oshib kelmadi deyisiz. Endi ular haqiqiy mardlik maktabida toblanadi, o'sadigan hayot kechiradi.






Image not found or type unknown

